

**TA'LIM JARAYONIDA IT TERMINOLOGIYASINI O'RGATISHDA SUN'IY INTELLECT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.****Narkulova Madina Iskandarovna***SamDCHTI akademik litsey ingliz tili fani o'qituvchisi***Annotatsiya**

*Ushbu maqola ta'lim jarayonida IT terminologiyasini o'rgatishda sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini tahlil qiladi. Shuningdek, o'quvchilarning raqamli savodxonligini oshirishda zamonaviy yondashuvlarni yoritib beradi.*

**Annotation**

*This article analyzes the effectiveness of using artificial intelligence and digital technologies in teaching IT terminology during the educational process. It also highlights modern approaches to improving students' digital literacy.*

**Аннотация**

*В данной статье анализируется эффективность использования искусственного интеллекта и цифровых технологий при обучении IT-терминологии в образовательном процессе. Также освещаются современные подходы к повышению цифровой грамотности учащихся.*

**Kalit so'zlar:** *IT terminologiya, sun'iy intellekt, raqamli ta'lim, ta'lim texnologiyalari, ingliz tili.*

**Keywords:** *IT terminology, artificial intelligence, digital technology, educational technologies, english language.*

**Ключевые слова:** *IT-терминология, искусственный интеллект, цифровое образование, образовательные технологии, английский язык.*

**Kirish**

Texnika asri rivojlangan sari ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektdan foydalanish jadal suratlarda ommalashib bormoqda. Shuningdek, akademik litseylarda ham IT terminologiyasi muhim ro'l o'ynamoqda. IT terminologiyasi asosan ingliz tilida shakllangan bo'lib, o'zbek tilida ularni o'rganish biroz qiyinchilik keltirib chiqaradi.

IT terminologiyasini o'rgatishning dolzarbligi.

Texnikadagi rivojlanishlar sabab yangi terminlar paydo bo'lmoqda, masalan, machine learning, data mining, cloud computing kabilar o'quvchilardan nafaqat tarjima, balki mazmunini chuqur anglashni talab qiladi. O'quvchilar bu terminlarni o'rganishi kelajak kasbiy faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Sun’iy intellect ta’lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqmoqda. U terminlarni kontekstda tushuntirib, avtomatik test va baholashni amalga oshiradi. Masalan sun’iy intellect yordamida ishlaydigan o’quv platformalar o’quvchilarga individual yondashuvni ta’minlab, terminlarni tezroq o’zlashtirishga yordam beradi.

Raqamli texnologiyalarning roli;

Raqamli vositalar-elektron darsliklar, mobililovalar, onlayn platformalar-IT terminologiyasini o’rgatishda muhim vosita hisoblanadi. Ular:

=Visual va interaktiv o’rganishni ta’minlaydi

=Mustaqil ta’lim olish imkonini kengaytiradi

=O’quvchilarning qiziqishini oshiradi.

Shu bilan birga ba’zi muammolarga ham olib keladi. Masalan: barcha o’quv muassasalarida texnik baza yetarli emas, internet tezligi va sifat pastligi, ayrim terminlarni o’zbek tilidagi muqobillari yetarli darajada emasligi, axborot xavfsizligi bilan bog’liq muammolar. Bu omillar ta’lim samaradorligiga salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin. Kelajakda raqamli ta’lim texnologiyalari yanada rivojlanib, quyidagi yo’nalishlarda keng qo’llanilishi kutilmoqda:

Sun’iy intellect asosida shaxslantirilgan ta’lim

Virtual ta’lim texnologiyalaridan foydalanish

Ta’lim jarayonini to’liq raqamlashtirish.

Bu kabi muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi tavsiyalar keltiriladi:

–o’qituvchilar uchun raqamli texnologiyalar bo’yicha treninglar tashkil etish

–AI asosidagi o’quv platformalarni joriy etish

–IT terminologiyasini standartlashtirish ustida ishlash

–ikki til (ingliz –o’zbek)o’quv resurslarini yaratish

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, ta’lim jarayonida IT terminologiyasini o’rgatishda sun’iy intellect va raqamli texnologiyalardan foydalanish ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bu yondashuv o’quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirib, ularni zamonaviy axborot jamiyatiga moslashtirishiga xizmat qiladi. Kelajakda ushbu yo’nalishda ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish va amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.